ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"BUNYODKOR YOSHLAR 2020" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Yusupov Abomuslim Xasan O‘g‘li
Sana: 24-04-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

237611 - SONLI

Obyekt nomi: Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Ibrat asr MFY Registon ko’chasi 4-A-uy (1-korpus)da Mavjud bino va inshootlarni buzib, o’rniga 5 (besh) qavatli turar-joy binosi qurish	
Buyurtmachi:	"MARG'ILON GRAND BUILDING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Bosh loyihachi:	"MAGIC PROJECT MAKERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	"MARG'ILON GRAND BUILDING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	063513

1. Loyihalash uchun asos.

Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 18.05.2024 yildagi №1730401-175931-sonli ruxsatnomasi.

Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 27.06.2024 yildagi №1730-1730401-189506-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i (APZ).

Buyurtmachi “MARG'ILON GRAND BUILDING” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 18.01.2025-yildagi №7-sonli tasdiqlangan loyihalashtirish uchun topshirig’i.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Farg’ona HETK” AJning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 11.04.2025 kungi №3040123109 -sonli texnik sharti.

“Farg’ona suv ta’minoti” AJning ichimlik va oqava suv tizimiga ulanish uchun 10.04.2025 yil kungi №5002-sonli texnik sharti.

“Hududgazta’minot” AJning 11.04.2025-yildagi №8475-6167-f8e6-b304-4605-7021-5483 -sonli xabarnomasi.

“O’ZGASHKLITI” DUK Farg’ona filiali tomonidan 2022-yilda tayyorlangan muhandislik - geologik sharoitlar bo'yicha xulosasi.

Buyurtmachi “MARG'ILON GRAND BUILDING” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda loyihalovchi “Magic Project Makers” ma’suliyati cheklangan jamiyati o’rtalarida imzolangan loyihalash uchun 16.01.2025 yildagi №6-sonli o’zaro shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 18.05.2024 yildagi №1730401-175931-sonli ruxsatnomasi.

Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 27.06.2024 yildagi №1730-1730401-189506-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i (APZ).

Buyurtmachi “MARG'ILON GRAND BUILDING” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 18.01.2025-yildagi №7-sonli tasdiqlangan loyihalashtirish uchun topshirig’i.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Farg’ona HETK” AJning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 11.04.2025 kungi №3040123109 -sonli texnik sharti.

“Farg’ona suv ta’minoti” AJning ichimlik va oqava suv tizimiga ulanish uchun 10.04.2025 yil kungi №5002-sonli texnik sharti.

“Hududgazta’minot” AJning 11.04.2025-yildagi №8475-6167-f8e6-b304-4605-7021-5483 -sonli xabarnomasi.

“O’ZGASHKLITI” DUK Farg’ona filiali tomonidan 2022-yilda tayyorlangan muhandislik - geologik sharoitlar bo'yicha xulosasi.

Buyurtmachi “MARG'ILON GRAND BUILDING” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda loyihalovchi “Magic Project Makers” ma’suliyati cheklangan jamiyati o’rtalarida imzolangan loyihalash uchun 16.01.2025 yildagi №6-sonli o’zaro shartnoma.

Davlat ekologik ekspertizasining 12.07.2024 yil kungi №01-02/12-784-sonli ijobiy xulosasi.

Farg’ona viloyati Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 03.04.2025 yil kungi №183418261-sonli ijobiy xulosasi.

“Magic Project Makers” ma’suliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan “Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Ibrat asr MFY Registon ko’chasi 4-A-uy (1-korpus)da mavjud bino va inshootlarni buzib, o’rniga 5 (besh) qavatli turar-joy binosi qurish” ishchi loyihasi:

- Albom-1: Bosh reja
- Albom-2: Arxitektura-qurilish qismi;
- Albom-3: Elektr ta’minoti qismi;
- Albom-4: Isitish tizimi va ventilyatsiya qismi;
- Albom-5: Suv ta’minoti va kanalizatsiya qismi;
- Albom-6: Yong’in signalizatsiyasi qismi;
- Albom-7: Nogironligi bor shaxslar va keksalar ehtiyojlari inobatga olgan loyiha qismi;
- Jild: Smeta hujjatlari;
- Jild: Umumiy tushuntirish xati;

Vaziyat rejasi

M1:2000 bosh rejasidan ko'chirma

Buyurtmachi “MARG'ILON GRAND BUILDING” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbarining murojat xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	5 QAVATLI TURAR JOY	5	307.84	1278.5	5683.57	1
Jami:			**307.84**	**1278.5**	**5683.57**	**1**

Qurilish maydoni: 307.84 m2, hajmi: 5683.57 m3 bino qavati: 5

Bino besh qavatli yerto'la qismiga ega to'rtburchak shaklda bo'lib, o'qlari bo'yicha quyidagi o'lchamlarga ega 14,4x20,4 m. Bino qavatining poldan shiftgacha balandligi: yerto'la – 2,7 m; 1-2-3-4-5- qavatlari – 3,0m;

Konstruktiv yechim:

poydevori – tasmasimon monolit temirbetondan;

tashqir devorlari – M-75 markali pishtgan g'ishtdan, qalinligi – 380 mm, hamda gazablokdan D500 markali qalinligi – 150-200mm;

sarrov (ригель) – monolit temir beton;

ustunlar va o'zaklar (сердечники) – monolit temir beton;

eshik va deraza oraliqlari tepadon (перемычки) – monolit temir beton va metal;

ora yopma – yig'ma g'ovakli temir beton plitalar;

tom qismi – yog'och konstruksiyaga qoqligan metal profnastil listdan;

yomg'ir suv quvurlari – polimer qoplamali g'ovakli metall quvurlardan yasalgan drenaj tornovlar va quvurlar orqali tashkil etilgan;

poypesh qismi (цоколь) – kafel;

derazalar – PVX profildan;

eshiklar – alyumin profil, MDF va metaldan;

vitrajlar – PVX profildan;

Ichki pardozlash ishlari: devor va yonbag'irlar sement-oxakli qorishma bilan suvaladi, shpatlyovka bilan tekislanadi, shiftga qadar suvli emulsya bo'yog'i bilan 2 marta pardoz qavatli bajariladi. Sanuzellarda keramik plitalar bilan qoplanadi. Sanuzel shiftlari ham moyli bo'yoq bilan 2 marta bo'yaladi. Temirbeton shiftlar shpatlyovka qilib tekislanadi. So'ng suvli emulsya bo'yog'i bilan pardoz qavati bajariladi – 2 marta;

Pol qoplamasi – keramik plita, kermogranit va laminat bilan qoplangan;

Tashqi pardozlash ishlari: devorning ustki qismi 50mm li bazalt issiqlik plita qoplamasi, shuvoq qilingan hamda travertin qoplamasi bilan qoplangan;

BOSH REJA

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Ibrat asr MFY Registon ko'chasi 4-A-uy (1-korpus)da mavjud bino va inshootlarni buzib, o'rniga 5 (besh) qavatli turar-joy binosi seysmikligi 8 ball bo'lgan II iqlim mavzesida shag'al tuproqda qurish uchun mo'ljallangan.

Qurilish maydoni quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

Loyiha quyidagi xususiyatlarga ega IV iqlim mintaqasi uchun ishlab chiqilgan:

- standart qor yuki -50 kg/m²
- shamol yuki – 0,38 kg/m²
- qishda taxminiy tashqi havo harorati -14 ° C
- hisoblangan seysmiklik - 8 ball

Tuproqning muzlash chuqurligi 0,68 m.

Obyekt shimoldan – bolalar maydonchasi va ko'p qavatli turar-joy binolari, janub va sharqdan – ko'p qavatli turar-joy binolari hamda g'arbdan – qurilishi tugallanmagan ko'p qavatli turar-joy binosi bilan chegaralangan. Hududda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida avtoturargoh, tashqi yoritish chiroqlari, o'rindiqlar, bolalar maydonchasi hamda chiqindilarni to'plash joylari barpo etiladi. Qurilishdan holi hudud obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirish nazarda tutilgan.

Nogironligi bor shaxslar va keksalar uchun:

Obyekt hududida loyihalanadigan avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 10 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan, Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan, Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 cm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan, Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilgan, nogironligi bo’lgan shaxslar yuqori qavatga ko’tarilishi uchun lift o’rnatilgan, ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan, Ishchi loyiha “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Umumiy ma’lumotlar

Suv va oqava suv ta’minoti bo'limi tegishli me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda arxitektura, qurilish va texnologik bo'limlarga muvofiq ishlab chiqilgan:

Ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini hisoblash va loyihalash QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya," QMQ 2.04.02-97" suv ta'minoti.

Tashqi tarmoqlar va inshootlar, " QMQ 2.04.03-97" kanalizatsiya.

Suv ta’minoti va kanalizatsiya.

Sovuq suv tarmoqlari. Loyiha QMQ 2.04.02-97, 2.04.03-97, standartlari asosida amalga oshirildi. Loyiha suv ta’minoti va kanalizatsiya tarmoqlariga ulanishni nazarda tutadi. “Farg’ona suv ta’minoti” AJ tomonidan berilgan texnik shartga asosan ichimlik suviga uIanish nuqtasi Registon ko’chasi hududida joylashgan (300 mm, bosimi 0,5 atm, chuqurligi 1,5, polietilen bo’lgan) mavjud ichimlik suv tarmog’iga alohida ichimlik suv qudug’i qurish orqali ulanadi. Ko’p qavatli xonadonlarda ichimlik suvi bosimini yetarli miqdorda ta’minlash uchun yer to’la qismiga suv ko’tarish nasosi o’rnatilgan. Tarmoq GOST 18599-2001 bo'yicha 57x4,0 mm polipropilen quvurlardan, GOST 10704-91 bo'yicha loyihalandi. Tarmoqning chuqurligi 1,5 m. Tarmoq tortish paytda mavjud komunikatsiya tarmoqlariga zarar yetkazmaslik uchun tegishli tashkilotlarga ogoxlantirish xati berilsin.

Sovuq suv tarmog'ini tortish uhun PPR PN-10 quvurlaridan foydalanilgan. Quvurlar ochiq va yopiq pol ostida tortilgan. Binoga kirish soni bitta. Quvurlar bino devorlaridan o'tishida po'lat gilzalar ichidan o'tadi. Pol ostidan va cherdakdagi quvurlar ARMOFLEKS trubkali qalinligi 19mm bilan izolyatsiya qilingan.

Tashqi yong'inni o'chirish loyihalashtirilgan o't o'chiruvchilar tomonidan amalga oshiriladi, ular ko'cha tarmog'idagi ulanish nuqtalarida joylashtirilgan.

Issiq suv tarmoqlari.

Issiq suv tarmog'ini tortish uhun PPR PN-20 quvurlaridan foydalanilgan. Quvurlar ochiq va yopiq pol ostida tortilgan. Issiq suv quyosh suv isitgichi orqali ta'minlangan. Quyosh nuri yetarli darajada isitib bera olmagan vaqtda elektor suv isitgichlar avtomatik tarzda ishga tushadi. Issiq suvni saqlash uchun 3 dona 1 m3 sig'imga ega boyler qo'yilgan. Quvurlar bino devorlaridan o'tishida po'lat gilzalar ichidan o'tadi. Pol ostidan va cherdakdagi quvurlar ARMOFLEKS trubkali qalinligi 19mm bilan izolyatsiya qilingan.

Oqava suv tizimi.

Oqava suvlarni quyishida “Farg’ona suv ta’minoti” AJ tomonidan berilgan texnik shartga asosan oqava suv tarmog’iga uIanish nuqtasi Registon ko’chasi hududida joylashgan mavjud 300 mm, chuqurligi 2,0 metrdagi gofra tarmog’iga ulash ko’zda tutilgan. Tarmoq GOST 18599-83 bo'yicha 110 "Texnik" PE quvurlardan foydalanilgan. Tarmoqning chuqurligi profil ko’rsatilgani bo’yicha olinadi. Tarmoq quvir ostiga 10sm qalinlikdagi tuproqning yumshoq qatlami solinadi. Quduqlarning tashqi yuzasi 2 marta korroziyaga qarshi bitum izolyatsiyasi bilan qoplangan. Oqava suv tarmog'ini tortish uchun bosimsiz polietelin quvurlaridan foydalanilgan. Quvurlar ochiq va yopiq pol ostida tortilgan.

Loyihadan ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan barcha og'ishlar qurilish-montaj ishlari boshlanishidan oldin loyiha tashkiloti bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Quduqlarning tashqi yuzasi va pastki qismi bitum mastikasi bilan ikki marta qoplangan.

Tuproq ishlari, quvurlarni xandaqqa yotqizish, quvur simlarini o'rnatish, o'chirish, o'lchash va xavfsizlik klapanlari QMQ 3.06.08-97 talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Quvurlar va sanitariya uskunalarini o'rnatish QMQ 3.05.01-97 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Isitish tizimi va ventilyatsiya (shamollatish).

Farg'ona ob-havo ma'lumotlariga ko'ra: Isitishni loyihalash uchun hisobiy tashqi havo harorati B parametr bo'yicha t=-14°C. Issitish davrining davomiyligi -132 kun. Bino ichki harorati t=20°C dep qabul qilindi. Issiqlik manbai sifatida elektr isitish qozonidan loyiha asosida foydalaniladi. Qozonxonlardan issitish tizimiga keladigan issiqlik tashuvchining harorati 80-60°C. Isitish tizimi 2 quvurlik va banadligi H-500 bimetal radiator o'rnatish loyihalanmomqda. Asosiy tushuvchi polipropilen quvurlardan. Tizimda to'plangan havo radiatorda o'rnatilgan havo chiqaruvchidan bo'shatiladi.

Ventilyatsiya (shamollatish).

Binoda tabiiy va mexanik ventilyatsiya qo'llanilmoqda. Xonalarga toza havo oqimi derazalar va darjalar orqali amalga oshiriladi. Sanuzellardan havoni so'rib chiqish uchun devor shaxtasiga o’rnatilgan yumaloq kannalli ventilyatordan foydalaniladi. Oshxonalarda havoni so'rib chiqarish uchun osma qurilmasi (вытяжка) o’rnatilgan.

Havo kanallari GOST14918-80 galvanizli po'latdan yasalgan, qalinligi QMQ 2.04.05-97* ga muvofiq. Havo kanallari 5.904-1 seriyasiga muvofiq mahkamlanishi kerak.

Uskunalar, havo kanallari va quvurlarni o'rnatish QMQ 3.05.01-97 "Ichki sanitariya tizimlari" talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shamollatish tizimlari uchun havo kanallarini o'rnatish qurilish ishlari tugagandan so'ng amalga oshirilishi kerak. Barcha tizimlarning uskunalari va havo kanallarini PUE talablariga muvofiq erga joylashtiring.

Elektr ta’minoti. Umumiy ko‘rsatmalar.

Loyihada ichki elektr ta’minoti o’rnatilishini o’z ichiga oladi. Binoning elektr ta’minoti loyihasi amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq qurilish-arxitektura asosida amalga oshiriladi. Yoritish uchun ko‘zda tutilgan quyosh panelidan qo‘shimcha keng foydalanish, 2.04.15-22 “Fotoelektrik stantsiyalar” talabiga muvofiq bajarildi. Elektr yoritishning muqobil tizimi fotoelektr tizimi hisoblanadi (FES) quvvati 0,28 kVt bo‘lgan 10 ta kun kollektorlariga ega.

Taqsimlash tarmoqlari PV-1 markasidagi suv va VVGng kabeli bilan yopilib bajariladi, shuningdek PVX quvurlarida yerga qo‘yish. Elektr uskunalarining barcha metal qismlari tizim bilan kabelni maxsus turar joyga qo‘shish yo‘li bilan to‘ldirilishi lozim.

Elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog’iga ulanish uchun 2025-yil 11-aprel kungi №3040123109 -sonli texnik shartiga asosan obyektni elektr energiyasi bilan ta’minlash 110/6 kVli Sakkokiy p/stansiyasi 6 kVli RP-5 uzatmasidagi 1245-TPning 6 kV li tomoniga yacheyka o‘rnatgan holda bajariladi.

Elektr qismi QMQ 2.04.17-19, SHNK 2.08.01-05 va PUE ga muvofiq, loyihaning me'moriy va qurilish qismi topshiriqlari asosida bajariladi. Elektr ta'minoti ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binosi 2-toifali iste'molchilarga tegishli.

VRU-1 ning taxminiy quvvati 77,436 kVtni tashkil qiladi.

Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining hisoblangan yuklari, shuningdek kirish bo'yicha hisoblangan yuklar har bir xonadonning o'ziga xos yukiga va QMQ 2.04.17-19 ning 2-jadvaliga muvofiq bir vaqtdalik koeffitsientini hisobga olgan holda kvartiralar soniga qarab belgilanadi.

O'rnatilgan PR8501, PR8501 shitlar har bir qavatning kirish joylarining zinapoyalari, guruhli bir fazali kalitlar va TE-71 elektron hisoblagichlari joylashgan shit sifatida ishlatiladi. Asosiy tarmoq AVVG kabeli suv va gaz quvurlari va polivinilxlorid quvurlari yordamida amalga oshiriladi. LED lampalar oddiy uy iste'molchilari uchun yorug'lik manbalari sifatida qabul qilingan. Kvartiralarning barcha xonalarida yorug'lik moslamalarini SHNK 2.08.01-05 ga asosan o'rnatish nazarda tutilgan. Kvartiralarning guruh tarmoqlari VVGng-0,38 kabeli bilan amalga oshiriladi plitalar, shiftlaridagi bo'shliqlarda va gipsli qatlamda yashiringan. Qavat qalqonlari poldan 1,2 m balandlikda o'rnatiladi. Loyihada har bir xonadonga tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlarni o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Kalitlar poldan 0,8 m balandlikda, oshxonalardagi rozetkalar va san-uzelda poldan 0,9 m balandlikda o'rnatiladi. Umumiy xonada maishiy konditsionerni ulash uchun poldan 1,8 m balandlikda rozetka o'rnatish ko'zda tutilgan.

Barcha metall, odatda elektr jihozlarining oqim o'tkazmaydigan qismlari neytral sim va PE shinasiga ulanish orqali yerlatish va zararsizlantirishga olib bo'ladi. Barcha montaj ishlari Elektr o'rnatish kodeksi va QMQ 3.05.06-97 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Zilzilabardoshlilik chora-tadbirlari

Loyihada loyihaviy seysmikligi 8 ball bo‘lgan binoning seysmik chidamliligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar kompleksi nazarda tutilgan. Devorlarning burchaklari va kesishmalari har 675 mm balandlikda gorizontal bo'g'inlarga yotqizilgan armoto'rlar bilan mustahkamlangan. Peremichkalar devorga kamida 35 sm chuqurlikda va 1,5 m gacha bo'lgan ochilish kengligi uchun kamida 25 sm chuqurlikda o'rnatilgan. Antiseysmik kamar pastki devorga ulangan vertikal vipusk armaturalari bilan mustahkamlangan. QMQ 2.01.03-96 ga muvofiq temir-beton qo'shimchalar bilan devorlarni mustahkamlash nazarda tutiladi.

Yong'inga qarshi choralar.

- yong'in sodir bo'lganda barcha isitish va shamollatish tizimlarini o'chirish;
- ventilyatsiya uskunalari va havo kanallari yonmaydigan materiallardan tayyorlangan;
- havo kanallari yong'inga chidamlilik chegaralariga muvofiq izolyatsiyalanadi

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Farg’ona shahar qurilish va uy-joy kommunal ho’jaligi bo‘limi boshlig‘i;

Farg’ona shahar SEO va JSX;

Farg’ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limi;

Davlat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi;

Shaharsozlik kengashi bilan kelishilgan

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **5 156 431 159** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

159 115 846 so'mga kamaytirilib, **4 997 315 313** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **4 434 748 287** so'm

Asbob-uskunalar: **401 445 072** so'm

QQS: **532 169 794** so'm

Ekspertizada batafsil loyihaning quyidagi bo'limlari ko'rib chiqildi: arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv echimlar, muhandislik-kommunikatsiya yechimlari va yong'in xavfsizligi.

Ko‘rib chiqish jarayonida ekspert mulohazalari asosida loyihaga quyidagi tuzatishlar va tavsiyalar kiritildi:

Arxitektura va qurilish yechimlari (AR, KJ, KM) bo’yicha:

Umumiy ma’lumotlar listida konstruktiv yechimlari tekshirib chiqilsin;

ta'kidlanganidek, 5.3-bandga muvofiq. GOST 21.114-2013 loyihada obyektning masshtab o'lchovini ko'rsatish tavsiya etiladi;

QMQ 2.03.10-95 ga binoan, metall tomlar uchun yong'inga qarshi ishlov berishni ta'minlash;

KJ qismi katlavan rejasida katlavan qirqimi ko’rsatilmagan;

KJ qismi poydevor rejasida armato’rlar loyiha bo’yicha hisoblanmagan;

otmostka detallari ko’rsatilmagan;

KJ qismida sarrov (ригель) rejasi jadvalida sterjenlar soni noto’g’ri hisoblangan;

ishchi loyiha AR qismida binoning sath ko’rsatkichlari to’g’irlansin;

ta'kidlanganidek, GOST R 21.101-2020 ning 5.4.4-bandida binoning tomining qiyaligini ko'rsatish talab qilinadi, unga rioya qilish tavsiya etiladi;

ishchi loyihada umumiy ma’lumotlar tasnifi listi kamchiliklarini to'ldirish tavsiya etiladi;

Suv taqmoqlari bo’yicha:

jadvalda suv sarfi ko’p hisoblangan, qayta ko’rib chiqilsin;

sath ko’rsatkichlari qayta ko’rib chiqilsin;

Isitish va shamollatish loyihasi bo’yicha:

Issiqlik tizimining fazoviy ko’rinishi qayta ko’rib chiqilsin, sath ko’rsatkichlari ko’rsatilmagan va yo’nalishlar berilmagan;

Yong’in xavfsizligi signalizatsiya loyihasi bo’yicha:

SHNQ 2.02.09-2007 "Bino va inshootlarning yong'inga qarshi avtomatlari" ga binoan qo'riqlash va yong'in signalizatsiya tizimlarining ishchi loyihasini ishlab chiqish, loyihani tuman yong'in xavfsizligi bo'limi bilan muvofiqlashtirish;

chizmada birlamchi yong'in o'chirish tizimlarining (o't o'chiruvchilar) joylashishini va yong'in sodir bo'lgan taqdirda odamlarni evakuatsiya qilish sxemasini ko'rsatish kerak;

Tabiatni muhofaza qilish qo ‘mitasi talablariga va boshqa texnik shartlarga rioya qilish;

SHNQ 1.03.07-2010 "Qurilishning mualliflik va texnik nazorati to'g'risidagi nizom" ga muvofiq ish jarayonida u mualliflik, texnik nazoratni amalga oshirishi va yashirin ishlarning dalolatnomalarini tuzishi kerak (monolitik temir-beton konstruktsiyalar, metallni o'rnatish). ustunlar, lintellar, ulanishlar va boshqa elementlari;

me'yoriy hujjatlar, narxlar yoki ish sharoitlari o'zgargan taqdirda, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar, buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga binoan ish belgilangan tartibda tuzatilishi mumkin.

Minora kranlari va bortli avtomobillar chiqarib tashlansin.

Profnastil 1 kvmetr uchun 79,565 ming so’m qabul qilinsin.

Armaturalar 1 tonnasi uchun 9130,0 ming so’m qabul qilinsin.

Tayyor sementli qorishmalar 1 kubmetr uchun 387,316 ming so’m qabul qilinsin.

Og’ir beton M200 1 kubmetr uchun 354,821 ming so’m qabul qilinsin.

Og’ir beton M250 1 kubmetr uchun 427,0 ming so’m qabul qilinsin.

Og’ir beton M100 1 kubmetr uchun 300,0 ming so’m qabul qilinsin.

Transport va tayyorlash-ombor xarajatlari: Kabel-sim mahsulotlari uchun-1,5%; jihoz-uskunalar uchun-2% deb belgilansin.

Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq loyiha smetaxujjatlariga kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko‘rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi 220-son qaroriga muvofiq, barcha yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ob’ektlarda o‘rnatilgan issiq suv iste’moli hajmining kamida 25 foizi ushbu obyektlarda o‘rnatilgan quyosh suv isitish qurilmalari va elektr ta'minoti quyosh panellari orqali qoplanishini ta’minlangan;

Ushbu loyiha hujjatlarida qayta tiklanuvchi va saqlab beruvchi (minvata 140kg/m3) energiya manbalarini o‘rnatish nazarda tutilgan;

“Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi;

Yuqoridagi barcha qayd etilgan izohlar tuzatilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

“Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Ibrat asr MFY Registon ko’chasi 4-A-uy (1-korpus) da mavjud bino va inshootlarni buzib, o’rniga 5 (besh) qavatli turar-joy binosi qurish” loyiha hujjatlari ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Ekspertlar:

Arxitektura loyihalash qismi: A.Yusupov

Temir beton konstruksiya qismi eksperti: H.Pulatov

Yong'in havsizligi qismi bo'yicha ekspert: S.Mamirjonov

Elektr ta'minoti qismi eksperti: D.Rahmonov,

OV VK qismi eksperti: A.Saidabbasov